



SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE  
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,  
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”  
VOLUME 1. ISSUE 2. 2025

KREATIV YONDASHUV ASOSIDA O‘QITISH  
METODLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA INNOVATSION  
YONDASHUV INTEGRATSIYASI

Zarnigorxon Ikromjon qizi Meliqo‘ziyeva  
[zarnigorxonmeliqoziyeva@gmail.com](mailto:zarnigorxonmeliqoziyeva@gmail.com)  
Qo‘qon davlat universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada kreativlikni rivojlantirishning uslubiy asoslari tahlil qilinib, bu jarayonni qo‘llab-quvvatlash uchun innovatsion yondashuvlar ko‘rib chiqilgan, talabalarda kreativ kompetentlikni rivojlantirish borasida olimlarimizning qarashlari va istiqboli haqida so‘z boradi. Shuningdek innovatsion yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarning kreativligini rivojlantirishning nazariy va metodologik asoslarini tahlil qilinadi. Zamonaviy ta‘lim jarayonida samarali ishlash uchun zarur bo‘lgan asosiy raqamli kompetensiyalar va pedagogik texnologiyalar ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, ushbu sohada qo‘llaniladigan metodologik yondashuvlar va ta‘lim sifatini oshirish usullari muhokama qilingan.

**Kalit so‘zlar:** raqamli integratsiya, innovatsiya, kompetentlik, kreativlik, ta‘lim dasturlarining innovatsiyasi, masofaviy o‘qitish platformalari.

**Аннотация**

В данном тезисе проводится анализ методологических основ развития креативности, рассматриваются инновационные подходы, направленные на поддержку этого процесса, а также освещаются взгляды и перспективы отечественных учёных по формированию креативной компетентности у студентов. Помимо этого, исследуются теоретические и методологические основы развития креативности будущих педагогов на базе инновационных подходов. Рассматриваются основные цифровые компетенции и педагогические технологии, необходимые для эффективной деятельности в современной образовательной среде. Обсуждаются методологические



SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE  
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,  
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”  
VOLUME 1. ISSUE 2. 2025

подходы, применяемые в данной области, а также способы  
повышения качества образования.

**Ключевые слова:** цифровая интеграция, инновация,  
компетентность, креативность, инновационность образовательных программ,  
платформы дистанционного обучения.

**Abstract.** This article explores the implementation of teaching methods grounded in a creative approach, focusing on their role in enhancing students' creative competencies and overall learning effectiveness. In today's rapidly changing educational landscape, traditional teaching methods often fall short in preparing students for real-world problem-solving and innovation. Therefore, the creative approach to teaching is becoming increasingly relevant and necessary.

**Keywords:** digital integration, innovation, competence, creativity, innovation in educational programs, distance learning platforms

## KIRISH

Bugungi kunda kreativ fikrlash ta'lim jarayonida muhim ahamiyatga ega. Bu nafaqat yangi g'oyalar ishlab chiqish, balki muammolarni yangi nuqtai nazardan yechishga ham yordam beradi. Bundan tashqari mamlakatimizda inson, uning har tomonlama kamol topishi va farovonligi, manfaatlarini ro'yobga chiqarish sharoitlarni yaratish, ta'lim sifati va samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish borasidagi izchil islohotlar natijasida interfaol o'qitish metodlari asosida o'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish keng tatbiq etish imkoniyatlari yaratilmoqda. Hozirgi vaqtda pedagog kadrlarning kreativ kompetentligini rivojlantirish orqali ijodiy ta'lim jarayonini loyihalashtirishning zamonaviy metodik ta'minotni yaratish, talabalarda kasbiy faoliyat sohalariga yo'naltirilgan kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish asosiy vazifalardan biridir. Kreativlik ta'lim jarayonini tashkillashtirishni o'zida mujassamlashtirib,



**SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE  
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,  
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”  
VOLUME 1. ISSUE 2. 2025**

kreativ ta'lim jarayonini qurish, ta'lim texnologiyalaridan ijodiy salohiyatni rivojlantirish, turli uslublar, bilim va ko'nikmalar muvozanatini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Kreativlik-shaxsning yaratuvchanlik, ijodkorlik xislatlari bilan bog'liq ko'nikmalar majmui sifatida namoyon bo'ladi. Kreativlik o'z ichiga muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, intuitsiya, natijalarini oldindan ko'ra bilish, fantaziya, tadqiqotchilik va refleksiyaning qamrab oladi. Ko'rinib turibdiki, kreativlik bevosita shaxsning individual-psixologik xususiyatlari bilan bog'liq jarayon hisoblanadi. Uning rivojlanishi esa intellekt intuitsiya-mantiqiy fikrlash jarayoni ta'sirida keladi. Kreativ yondashuv va yutuqlar dunyo bo'ylab fan va texnologiyadan tortib, falsafa, san'at va ijtimoiy fanlar kabi turli sohalarda insoniyat tamaddunini ilgari surgan. Kreativ fikrlash shunchaki tasodifiy g'oyalar berishdan kattaroq narsadir. U insonga ba'zan murakkab sharoitlarda, yanada yaxshiroq natijaga erishishga imkon beruvchi bilim va tajribaga asoslangan real ko'nikmadir.

**ASOSIY QISM**

Bilamizki, kreativlik zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatning muhim omillaridan biridir. U yangi va innovatsion yechimlarni topish, muammolarni hal qilish va yangi g'oyalarni yaratish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Innovatsion yondashuv asosida talabalar kreativ kompetentlikni rivojlantirishning uslubiy asoslari haqida so'z yuritishdan oldin, avvalo, ushbu asosiy tushunchalarni aniqlab olish kerak: innovatsion yondashuv, kreativ kompetentlik, va uslubiy asoslar. Innovatsion yondashuv — bu yangi fikrlar, usullar va texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy qilishdir. Bu yondashuv talabalarning o'z-o'zini rivojlantirishiga, mustaqil fikrlashiga va zamonaviy muammolarni hal qilishda ijodiy yondashuvga undaydi. Talabalarda kreativ kompetentlikni rivojlantirishda foydalaniladigan materiallar va metodlar innovatsion yondashuvga asoslangan bo'lib, talabalarning ijodiy salohiyatini ochishga va ularni zamonaviy talablarga mos ravishda



**SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE  
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,  
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”  
VOLUME 1. ISSUE 2. 2025**

tayyorlashga qaratilgan. Quyida bu jarayonda qo‘llaniladigan materiallar va metodlar haqida batafsil ma'lumot beriladi.

-elektron kitoblar va maqolalar: Kreativ fikrlash va ijodiy muammolarni hal qilish haqida turli elektron manbalar.

-ta'lim platformalari: Coursera, Udemy, edX kabi platformalar, bu yerda talabalarning kreativ kompetentliklarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan kurslar mavjud.

-interaktiv ta'lim dasturlari: Duolingo, Khan Academy, va boshqa interaktiv o‘quv platformalari.

Yuqorida keltirilgan materiallar va metodlar innovatsion yondashuv asosida talabalar kreativ kompetentliklarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu usullar talabalarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini oshirish, murakkab muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirish va ularni zamonaviy talablar asosida tayyorlashga qaratilgan. Innovatsion metodlarni qo‘llash talabalarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirdi. Interaktiv va muammoli ta'lim metodlari, guruh ishlar va rol o‘yinlari orqali talabalar darslarga faolroq jalb qilindi. Bu, o‘z navbatida, ularning o‘rganish jarayonida ishtirok etish darajasini ko‘tardi. Innovatsion texnologiyalar va muammoli ta'lim metodlari talabalarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini sezilarli darajada rivojlantirdi. Case-study va loyiha asosida o‘qitish talabalarni yangi va samarali echimlarni izlashga undadi, bu esa ularning kreativ kompetentliklarini oshirdi. innovatsion yondashuv asosida talabalar kreativ kompetentliklarini rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar va amaliyotlar natijasida talabalarning ijodiy fikrlash qobiliyatlari, akademik natijalari va zamonaviy muammolarni hal qilish qobiliyatlari sezilarli darajada yaxshilandi. Bu yondashuvlar talabalarning kelajakdagi professional faoliyatlariga tayyorgarlik ko‘rish va zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli bo‘lishlariga katta hissa qo‘shdi. Zamonaviy jamiyatning tezkor rivojlanishi va texnologik yangilanishlar, ta'lim



**SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE  
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,  
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”  
VOLUME 1. ISSUE 2. 2025**

sohasida ham katta o‘zgarishlarni talab qilmoqda. Xususan, bo‘lg‘usi pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirish ularning kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bu kompetensiyalar zamonaviy o‘qitish metodlarini qo‘llash va ta‘lim sifatini oshirish imkonini beradi. Shu sababli, bo‘lajak pedagoglarda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish, ularni zamonaviy ta‘lim muhitiga moslashtirish va o‘quvchilarning o‘rganish jarayonini yaxshilash uchun zarur shartlarni yaratish muhimdir. Zamonaviy ta‘lim tizimida talabalarni kreativ va innovatsion fikrlashga o‘rgatish muhim vazifa hisoblanadi. Kreativ kompetentlik – bu talabalarning yangiliklarga ochiqligi, muammolarni ijodiy yondashuv bilan hal qilish qobiliyati va yangi g‘oyalarni ishlab chiqish qobiliyatidir. Ushbu maqolada innovatsion yondashuv asosida talabalarda kreativ kompetentlikni rivojlantirishning uslubiy asoslari tahlil qilinadi. Qolaversa, ta‘lim-tarbiya jarayonlarida milliy va zamonaviy texnologiyalarni integratsiyalash, ma‘lum bo‘limlarga amal qilish uchun hamda talabga mos ta‘lim tizimini yangilash uchun bir necha mavzular mavjud. Integratsiya, milliy va zamonaviy texnologiyalarni yangilash, ta‘limning sifatini oshirish va talabga mos o‘quv chegaralarini ishlab chiqishda ko‘p tajriba va faollikni ta‘minlaydi. Bu bo‘yicha amalga oshirilayotgan ilovalar va texnologiyalar ko‘plikda variantlarga ega bo‘lib, bir necha jabhalarda amalga oshiriladi.

Innovatsion kompetensiya - bu insonning yangi va foydali ideyalarni yaratish, ularni amalga oshirish va jamiyatda yangiliklar kiritishga murojaat qilishga qodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan tayyorlik va malakalardir. Bu, o‘rganish, muhokama qilish, ishlab chiqish va tatbiq etish, tahlil qilish, tajriba olish va muammolariga samarali echim topish, hamda muassasalar orasida innovatsiyalar o‘rnatishga bo‘lgan qodirliklarni o‘z ichiga oladi. Innovatsion kompetensiyalar, mavzularning orasidagi bog‘liqlikni tushunish, muammolarni kreativlik bilan hal qilish, riskni olg‘a bermaslik va yangi yondashuvlarga bo‘lgan ochiqlikni o‘z ichiga oladi. Bu



**SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE  
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,  
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”  
VOLUME 1. ISSUE 2. 2025**

tayyorliklar, boshqa soʻz bilan, insonni oʻz faoliyati, kasbiy rivojlanishi va jamiyat bilan hamkorlikda yangi vaqtli yondashuvlarni topish va amalga oshirish uchun zarur boʻlgan malakalardir. Xoʻsh bugungi axborotlashgan va globalashgan davrda oʻqituvchilar kompetensiyasini rivojlantirish qay darajda muhim. Oʻqituvchilarning innovatsion kompetensiyasini rivojlantirish uchun quyidagi harakatlar muhim boʻladi. Innovatsion yondashuv asosida talabalarda kreativ kompetentlikni rivojlantirishning uslubiy asoslari zamonaviy taʼlim jarayonida muhim oʻrin tutadi. Interaktiv darslar, loyihaviy taʼlim, innovatsion texnologiyalar, kreativ muhit, murabbiylik tizimi, muammoga yoʻnaltirilgan taʼlim va kooperativ taʼlim kabi usullar talabalarni ijodiy fikrlash, muammolarni hal qilish va yangi gʻoyalarni ishlab chiqish koʻnikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu yondashuvlar taʼlim jarayonini diversifikatsiya qilish va talabalarni zamonaviy talablarga moslashtirish uchun zarurdir.

Kompetentlik zamonaviy taʼlim tizimida talab qilinadigan asosiy koʻnikmalardan biridir. Bu, odatda, bilim, koʻnikma va munosabatlarning muayyan sohada samarali harakat qilish uchun zarur boʻlgan integratsiyasini anglatadi. Ushbu maqolada kompetentlikni rivojlantirishning uslubiy asoslari tahlil qilinadi va bu jarayonni amalga oshirishda innovatsion yondashuvlar koʻrib chiqiladi. Jamiyatning yangilanishi taʼlim-tarbiya tizimini oʻzgarishini, unga yangicha yondoshuv hamda yangicha munosabatni talab qiladi. Boʻlajak mutaxassislariga sifatli taʼlim va tarbiya berish, bilim, koʻnikmalarini har tomonlama egallashlariga, kelajakda oʻz sohasining yetuk mutaxasisi boʻlishlarida hamda oʻquv fanlarini oʻzlashtirib borishlariga yengillik yaratish bugungi kunda dolzarblik kasb etadi.

Bugungi kunda oʻqituvchining innovatsion faoliyatini samarali amalga oshirish bir qator omillarga tayanadi. Unda oʻqituvchining muloqatchanligi, qarshi fikrlarga nisbatan xolisona munosabatga tayyorligi inobatga olinadi. Natijasida oʻqituvchi oʻz



**SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE  
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,  
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”  
VOLUME 1. ISSUE 2. 2025**

faoliyati ilmiy ta'minlaydigan keng qamrovli mavzu (motiv)ga ega bo'ladi. O'qituvchi faoliyatida o'z-o'zini faollashtirish, o'z ijodkorligi, o'z-o'zini bilishi va yaratuvchiligi kabi mavzu (motiv)lar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'qituvchi shaxsining kreativligini shakllantirish imkoniyatini beradi. Yangilik kiritishning muhim sharti muloqotning yangi vaziyatini tug'dirishdir. Muloqotning yangi vaziyati - bu o'qituvchining o'z mustaqillik mavqeini, dunyoga, pedagogik fanga, o'ziga bo'lgan yangi munosabatni yarata olish qobiliyatidir. O'qituvchi o'z nuqtai nazarlariga o'ralashib qolmaydi, u pedagogik tajribalarning boy shakllari orqali ochilib, mukammallashib boradi. Bunday vaziyatlarda o'qituvchining fikrlash usullari, aqliy madaniyati o'zgarib boradi, hissiy tuyg'ulari rivojlanadi.

Yangilik pedagogik yangilik me'yori sifatida o'zida taklif qilinadigan yangini, yangilik darajasi mohiyatini aks ettiradi. Pedagog olimlar yangilikning qo'llanish mashhurligi darajasi va sohasiga ko'ra farqlanadigan mutlaq, chegaralangan mutlaq, shartli, subektiv darajalarini farqlaydilar. Maqbullik me'yori o'qituvchi va talabaning natijaga erishish uchun sarflangan kuch va vositalarini bildiradi. Natijalilik o'qituvchi faoliyatidagi muayyan muhim ijobiy natijalarni bildiradi. Ilm-fanda kreativ fikrlash ilmiy tadqiqot malakasiga juda yaqin, lekin ushbu testning bir qator xususiyatlari uni matematika va ilm-fan sohasidagi testlardan butkul ajratib turadi. Birinchidan, ushbu test avval o'rgatilgan bilimni qo'llashga emas, yangi g'oyalarni yaratishga urg'u beradi. Ikkinchidan, o'quvchining yondashuv va yechimlarining o'ziga xosligi baholanadi (agar javoblar yaroqli deb topilsa). Uchinchi farq yagona mukammal yechimi bo'lmagan ochiq savollardan foydalanishdan iborat. Nihoyat, ushbu test o'quvchining ilmiy kontekstda kreativ fikrlash jarayonlariga – ya'ni “to'g'ri” yoki “eng ma'qul” yechimni topish qobiliyatiga emas, ochiq muammolar yechimiga qay tarzda yondashishiga e'tiborni qaratadi.



**SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE  
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,  
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”  
VOLUME 1. ISSUE 2. 2025**

Kreativlik tushunchasi “create” – yaratish, “creative” yaratuvchi, ijodkor, ingliz tilidan tarjima qilganda ijod ma’nosini anglatadi. Kreativlikni ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o’ziga doimiy tanqidiy nazar bilan qarash hamda tahlil etish, desak ham mubolag’a bo’lmaydi. Kreativlikning zamirida originallik, noodatilik va erkinlik mujassamdir. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, histuyg’ularida, muayyan faoliyat turlarida aks etib turadi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlari, zehni o’tkirligini ifoda etadi. Qolaversa, iqtidorning muhim omili sifatida namoyon bo’ladi. Kreativlik o’quvchining o’zidagi mavjud bilimning ko’p qirrali bo’lgani bilan baholanmaydi, balki yangi g’oyalarga intilish, hayotiy muammolarni yechishda noodatiy yondashish qobiliyati, kutilmagan qarorlar chiqara olish fazilatlarida zohir bo’ladi. “Didaktik faoliyat o’qituvchi va o’quvchilarning xatti-harakatlaridan iborat. Bunday faoliyat natijasida o’quvchilar bilim, iqtidor va ko’nikmalarga ega bo’ladilar, o’z dunyoqarashini, shaxsiy qadriyatlar tizimini shakllantiradilar. Bunday o’zgarishlarni kuzatish, hisobga olish pedagogik tadqiqotlarning asoslaridan hisoblanadi. Yuqoridagi o’zgarishlar, o’qituvchining didaktik faoliyati ta’siridagi va o’z shaxsiy xatti-harakatlari ta’siridagi o’zgarishlar orasidagi qonuniyatlarni ochishga, ularni tahlil qilishga imkon beradi. o’quvchilar va o’qituvchilarning o’quv ishlari, sharoitlari, harakatlari, ta’lim mazmuni, metod va vositalari orasidagi bog’liqliklar tabiat qonuniyatlari qanday obyektiv xarakterga ega bo’lsa, shunday obyektiv xarakterga egadir. Sinfda kreativ fikrlashni bunday o’ziga xos tarzda namoyon etuvchi omillar bir-biriga o’zaro chambarchas bog’langan bo’ladi. Kreativ fikrlashni ijtimoiy jihatdan rag’batlantiruvchi omillar umumiy madaniy tartiblar yoki qonuniyatlar yordamida o’z-o’zidan shakllanadi, Ta’lim olish jarayonida o’quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini rag’batlantirilishi ularning yaratuvchanlik qobiliyatlariga bo’lgan



**SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE  
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,  
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”  
VOLUME 1. ISSUE 2. 2025**

ishonchini, o‘zini o‘zi boshqarish xususiyatlarida va faoliyatlarida samaradorlikni oshirishga qaratilgan

Mamlakatimizda kadrlar tayyorlash va ta’limni tashkil etishning jahon standartlariga javob beradigan samarali tizimi yaratildi va bugungi kunda ham oliy ta’limni modernizatsiyalashga davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son qarori, 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini yanada kengaytirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son qarori, 2017-yil 9-avgustdagi “Oliy ta’lim tashkilotlarida pedagogika yo‘nalishlarida maxsus sirtqi bo‘limlarni tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3183-son qarori, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son qarori O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaroriga muvofiq, ta’lim bosqichlarining uzluksizligi va izchilligini ta’minlash, ta’limning zamonaviy metodologiyasini yaratish, o‘quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish hamda pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish taqozo etadi. Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan A.Aksenova, A.V.Morozov, D.V.Chernilevskiy, N.Veraks, N.A.Alekseev, Yu.K.Kruglova, K.G.



**SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE  
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,  
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”  
VOLUME 1. ISSUE 2. 2025**

Krechetnikov kreativ yondashuv asosida ta'lim sifat va samaradorligini rivojlantirish masalalari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borganlar. Ta'lim jarayonida ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishning omillari M.M.Zinovkina, A.V.Morozov, D.B.Chernilevskiy, V.N.Drujinin va boshqa olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lsa, ijod qilishning psixologiya xususiyatlariga qaratilgan konseptual nazariyalar Y.A.Ponomarev, A.N.Leontev, A.V.Morozovlar tomonidan yaratilgan. Ijod mezonlari, uning psixologik mexanizmlari, ijodiy tafakkurning rivojlanish texnikasi va boshqalarning ishlarida tadqiq etilgan D.B.Bogoyavlenskaya ishlarida ijod tahlili birliklari belgilangan. O'tkazilayotgan ilmiyuslubiy adabiyotlar tahlili natijalariga ko'ra, bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan mutaxasislarni kreativ yondoshuv asosida o'z-o'zini rivojlantirish faoliyatini takomillashtirish, ularni samaradorligini pedagogik tajribaga asoslash zarurati mavjud.

Innovatsion yondashuv asosida talabalarda kreativ kompetentlikni rivojlantirishning uslubiy asoslari – bu pedagogik jarayonlarni yangilash va zamonaviy talablarga moslashtirish orqali talabalarni ijodiy va kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishdir. Bunda quyidagi uslubiy asoslar muhim hisoblanadi:

1. Ta'lim jarayonini diversifikatsiya qilish orqali turli o'quv usullarini qo'llash va ularni integratsiya qilish orqali talabalarni turli vaziyatlarda kreativ fikrlashga rag'batlantirish:

- Interaktiv darslarda talabalar o'rtasida muloqotni kuchaytirish, muammolarni birgalikda hal qilishga undash.

- Loyihaviy ta'limda talabalarga real hayotga yaqin vazifalar berish va ularni mustaqil yoki guruhda yechish.

- Muammoli ta'limda talabalarni muammolarni tahlil qilish va ularga ijodiy yechimlar topishga o'rgatish.



**SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE  
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,  
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”  
VOLUME 1. ISSUE 2. 2025**

2. Innovatsion texnologiyalardan foydalanish ya’ni zamonaviy texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish orqali kreativ kompetentlikni rivojlantirish:

- Multimedia va interaktiv ta’lim materiallari, ya’ni ta’lim jarayonida video, audio va boshqa multimedia vositalaridan foydalanish.
- Onlayn ta’lim platformalarida talabalar uchun turli xil onlayn kurslar va platformalar orqali mustaqil o‘rganish imkoniyatini yaratish.
- Simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalar orqali talabalarni murakkab jarayonlar va amaliy ko‘nikmalar bilan tanishtirish.

3. Ta’lim muassasalarida kreativ va innovatsion muhit yaratish:

- Kreativ hududlar ya’ni ta’lim muassasalarida ijodiy zonalar va laboratoriyalar tashkil etish.
- Motivatsiya va rag‘batlantirish orqali talabalarning ijodiy tashabbuslarini rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash.

4. Ustoz-murabbiylik va mentorlik tizimini rivojlantirishda kreativ kompetentlikni rivojlantirish uchun tajribali ustozlar va mentorlarning o‘rni:

- Murabbiylik tizimi orqali tajribali mutaxassislar tomonidan talabalarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish.
- Kreativ seminarlar va master-klasslarda turli soha vakillari tomonidan o‘tkaziladigan seminarlar va mahorat darslari.

5. Muammoga yo‘naltirilgan ta’lim orqali muammolarni aniqlash, tahlil qilish va ularga ijodiy yechimlar topish ko‘nikmalarini rivojlantirish:

- Muammo-tahlil yondashuvi ya’ni, talabalarni muammolarni tahlil qilish va yechim topishga o‘rgatish.
- Yechimlarni innovatsion baholash orqali talabalarga o‘z yechimlarini baholash va takomillashtirishni o‘rgatish.



**SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE  
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,  
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”  
VOLUME 1. ISSUE 2. 2025**

6. Kooperativ va kollaborativ ta’lim orqali jamoaviy ish va hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish:

- Guruhiy loyihalarda talabalar orasida guruhiy loyihalarni amalga oshirish.

-Kollaborativ muammolarni hal qilish orqali birgalikda murakkab muammolarni yechish. Bu uslubiy asoslar talabalarni ijodiy fikrlash, muammolarni hal qilish va innovatsion yondashuvlarga moslashish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalari ko‘rsatdiki, kompetentlikni rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar katta ahamiyatga ega. Interaktiv va kooperativ o‘qitish usullari talabalarning faolligini oshiradi va ularning jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Loyihaviy va problemali ta’lim talabalarning muammolarni hal qilish qobiliyatini kuchaytiradi va ularni ijodiy fikrlashga undaydi. Simulyatsiya va ro‘l o‘yinlari esa talabalarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Onlayn va multimediya vositalari esa ta’lim jarayonini diversifikatsiya qilishda samarali hisoblanadi. Kompetentlikni rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining muhim qismi bo‘lib, bu jarayonni samarali amalga oshirish uchun innovatsion yondashuvlar zarurdir. Interaktiv va kooperativ o‘qitish, loyihaviy va problemali ta’lim, simulyatsiya va ro‘l o‘yinlari, onlayn va multimediya vositalaridan foydalanish talabalarning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali usullar hisoblanadi. Ushbu yondashuvlar talabalarning real hayotda muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan kompetentliklarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Tadqiqot natijalari talabalarni kreativ kompetentlikni rivojlantirishda quyidagi yutuqlarni ko‘rsatdi:

- Interaktiv darslar talabalarni dars jarayonida aktiv ishtirok etishga undadi, bu esa ularning kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirdi.



**SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE  
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,  
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”  
VOLUME 1. ISSUE 2. 2025**

- Loyihaviy ta’lim talabalarni mustaqil va guruhda ishlashga, real hayotdagi muammolarni hal qilishga o’rgatdi.

- Innovatsion texnologiyalar talabalarning bilim olish jarayonini diversifikatsiya qildi va ularning yangi bilimlarni o’zlashtirishiga yordam berdi. - Kreativ muhit talabalarni ijodiy fikrlashga rag’batlantirdi va ularda yangi g’oyalarni ishlab chiqish qobiliyatini rivojlantirdi.

- Murabbiylik va mentorlik tizimi talabalarni motivatsiya qildi va ularning ijodiy ko’nikmalarini rivojlantirishga yordam berdi.

- Muammoga yo’naltirilgan ta’lim talabalarni muammolarni tahlil qilish va ularga ijodiy yechimlar topishga o’rgatdi.

- Kooperativ va kollaborativ ta’lim talabalarni jamoaviy ishlashga va hamkorlikda kreativ yechimlar ishlab chiqishga undadi.

Tadqiqot natijalari ko’rsatdiki, innovatsion yondashuv asosida ta’lim jarayonini diversifikatsiya qilish va kreativ muhit yaratish talabalarni kreativ kompetentlikni rivojlantirishda muhim rol o’ynaydi. Interaktiv va loyihaviy ta’lim usullari talabalarni real hayotdagi muammolarni hal qilishga o’rgatsa, innovatsion texnologiyalar esa ularga yangi bilimlarni tez va samarali o’zlashtirish imkonini beradi. Murabbiylik va mentorlik tizimi talabalarni motivatsiya qilishda va ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Muammoga yo’naltirilgan ta’lim esa talabalarni analitik fikrlash va ijodiy yondashuvlarga o’rgatadi. Kooperativ va kollaborativ ta’lim usullari esa talabalarni jamoaviy ishlash ko’nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Shu o’rinda tegishli tadqiqotlar haqida ham ma’lumot berib o’tsak. Bo’lajak pedagoglarning kreatik kompetentligini rivojlantirishning nazariy va metodologik asoslarini o’rganishda quyidagi tadqiqotlar va adabiyotlar asosiy manbalar sifatida xizmat qilishi mumkin:

“Educating the Net Generation” tomonidan tahrirlangan. Bu asar zamonaviy talabalar va pedagoglar o’rtasida texnologiyalarning ta’sirini o’rganadi va ta’lim



**SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE  
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,  
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”  
VOLUME 1. ISSUE 2. 2025**

muassasalarida raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishning zarurati haqida muhokama qiladi.

“Digital Literacy for Dummies” by Faithe Wempen. Ushbu kitob raqamli kompetensiyalar asoslarini, shu jumladan axborot xavfsizligi, dasturiy ta’minot va raqamli vositalardan foydalanish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi.

“The Technology Toolbelt for Teaching” by Susan Manning va Kevin E. Johnson. Pedagoglarga zamonaviy o‘qitish vositalaridan qanday qilib samarali foydalanish mumkinligini o‘rgatuvchi amaliy qo‘llanma.

“Digital Competence Framework for Educators (DigCompEdu)”. Yevropa Komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan ushbu ramka, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish uchun aniq ko‘rsatmalar va darajalar taklif etadi.

“Handbook of Research on New Media Literacy at the K-12 Level: Issues and Challenges” by Leo Tan Wee Hin va R. Subramaniam. Ushbu to‘plam, K-12 darajasidagi o‘qituvchilar va o‘quvchilarning yangi media savodxonligini oshirish bo‘yicha qiyinchiliklar va yechimlarni taqdim etadi.

“Integrating Technology in Higher Education” by A. Balasubramanian. Bu kitob oliy ta’limda texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha yondashuvlar va strategiyalarni o‘rganadi, bu esa pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradi.

“Emerging Research and Trends in Interactivity and the Human-Computer Interface” by Katherine Blashki va Pedro Isaías. Ushbu to‘plam interaktivlik va insonkompyuter interfeysi sohasidagi so‘nggi tendensiyalarni va tadqiqotlarni taqdim etadi, bu o‘qituvchilarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan tanishtirishga yordam beradi. Ushbu manbalar, pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida nazariy va amaliy bilimlar bazasini kengaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotchilar va ta’lim muassasalari ushbu



SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE  
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,  
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”  
VOLUME 1. ISSUE 2. 2025

manbalardan foydalanib, pedagoglarni zamonaviy ta’lim muhitiga moslashuvchan va samarali o’qituvchilar sifatida tayyorlashga yordam berishlari mumkin.

**Xulosa o’rnida shuni aytish lozimki,** ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning ikki muhim ko’rsatkichi–sifat va samaradorlik, aynan o’qituvchining salohiyati va kasbiy mahoratiga uzviy bog’liq. O’qituvchi tajriba va malakasining uyg’unligi muvaffaqiyatlar garovi ekanligi sir emas. O’qituvchining ijodkor va tashabbuskor bo’lishi lozimligini buyuk nemis pedagogi A.F.Distervegning fikri ham tasdiqlaydi: “Noqobil o’qituvchi haqiqatni shunchaki aytadi-qo’yadi, yaxshisi esa uni topishga o’rgatadi”. O’qitishning kreativ usullari kommunikativ, kognitiv va ta’lim xarakteridagi muammolarni bir vaqtning o’zida hal qilishga yordam beradi. Bugungi kunda yosh avlodni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish va jahondagi o’z tengdoshlari bilan raqobatlasha oladigan kuchli bilimlar egasi etib tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalasiga aylangandir. Yaratilayotgan ulkan imkoniyatlar yosh avlodni ta’lim-tarbiya olishida o’zining munosib hissasini qo’shmoqda. O’sib kelayotgan yosh avlodga har qaysi ta’lim yoshida o’ziga xos e’tibor qaratilishi yoshlar tarbiyasi davlat siyosati darajasiga ko’tarilganidan darak beradi. Millatimizga xos bo’lgan ilm olishga qiziqish, intilish, jo’shqinlik, qat’iyatlilik, shijoatkorlik, yuksak salohiyat avlodlar davomiyligini ta’minlovchi sifatlar hisoblanadi. Chunki barkamol yoshlar yurtning ertangi kunini belgilaydi. Yoshlar tarbiyasi ularga kasb-hunar o’rgatish sirlari haqida so’z borar ekan, bu erda o’qituvchi murabbiylar, pedagoglarning xizmati va ularning kasbiy mahorati alohida o’rin tutadi. Azal-azaldan xalqimiz farzandlarini bilimli, jonkuyar, tajribali murabbiylar qo’liga topshirishni farz deb bilgan bo’lsa, bugungi globallashuv va texnologiyalar davrida ham pedagogning jamiyatdagi o’rni va mavqei mustahkamlanib, uning mahoratiga qo’yiladigan talablar oshib bormoqda.



**SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE  
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,  
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”  
VOLUME 1. ISSUE 2. 2025**

Kreativ fikrlash orqali o‘quvchilar o‘z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo‘llashni o‘rganadi, innovatsion yechimlarni ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi. Kritik (tanqidiy) fikrlash: ushbu metodologiya o‘quvchilarning axborotni tanqidiybaholash, o‘z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. O‘quvchilar muammolarga tahliliy nuqtayi nazardan yondashishni o‘rganadi va mantiqiy fikrlash asosida o‘z nuqtayi nazarini shakllantiradi. PISA, PIRLS kabi xalqaro reytinglarda yuqori o‘rinlarni egallagan davlatlar ta’limida o‘quvchilarda “4K”ni o‘z ichiga olgan muloqot, tadqiqot, yaratuvchanlik kabi ko‘nikmalarga alohida urg‘u berilgan va shuning uchun ham ular xalqaro reytinglarda katta natijalarga erishishyapti. “4K” modeliga asoslangan innovatsion yondashuv maktablarda qo‘llash uchun alohida sharoitlar talab etmaydi. Masalan, o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash qobiliyati savoltopshiriqlar bilan, muloqot ko‘nikmasi esa savol-topshiriqlar va mashg‘ulotlar orqali rivojlanadi. Ijodiy ta’lim - bu ijodkorlikka o‘rgatishdan boshqa narsa emas va aynan shu narsa ijodiyfaoliyatdir. O‘qituvchining shaxsiy namunasi katta ahamiyatga ega. O‘qituvchi zukko, ijodkor, iqtidorli va bu ijodkorlikni boshqalarga o‘rgata oladigan bo‘lishi kerak. Ijodiy o‘qitish usullari: keys usuli, aqliy hujum usuli, empatiya usuli, inversiya usuli, sinektika usulidan foydalanishi; ijodiy muammoni hal qilishda empatiyadan o‘rinli foydalanish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi kerak.

Kreativ yondashuv asosida o‘qitish metodlari zamonaviy ta’lim talablariga to‘la javob beradi. Bu metodlar orqali o‘quvchilarning shaxsiy sifatleri, bilim va ko‘nikmalari, ijtimoiy faolligi hamda ijodkorlik qobiliyatlari shakllanadi. Har bir o‘qituvchi ushbu yondashuvni amaliyotda qo‘llab, ta’lim jarayonini yangilashga harakat qilishi lozim. Zero, bugunning talabi – ijodkor, mustaqil fikrlaydigan va zamon bilan hamqadam bo‘la oladigan shaxsni tarbiyalashdir.



**SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE  
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,  
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”  
VOLUME 1. ISSUE 2. 2025**

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son farmoni. Qonun hujjatlari ma’lumotlar milliy bazasi, 24.10.2020-y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan so‘zlagan Murojaat nutqi.// “Xalq so‘zi” gazetasi 2020-yil 1-oktabr soni.
3. Azizova G.G. Oliy ta’lim muassasalari professor- o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik faoliyatini takomillashtirish 13.00.01 – “Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi”. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissert. avtoreferati. Samarqand – 2019.
4. Djampulatova, N. (2023). The role of the coaching approach in teaching a foreign language. *Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences*, 2(1), 191-195.
5. Hasanboyeva O.X. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2020.
6. Jalolov J.J. Ta’limda innovatsion yondashuvlar va metodlar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
7. Qodirov A. Ijodkorlik va kreativ fikrlash psixologiyasi. – Samarqand: Imkoniyat, 2015.
8. Tursunov B., O‘rinboyev I. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2017.
9. Yuldasheva N. K., Djampulatova N. M. Talabalarning kommunikativ rivojlanishi kontekstida kouchinglik modeli // *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*. – 2022. – T. 2. – №. 11. – C. 915-920.



**SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE  
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,  
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”  
VOLUME 1. ISSUE 2. 2025**

10. G‘affarov E. Innovasiya, ijtimoiy innovasiya va innovasion faoliyat: ilmiy-nazariy yondashuvlar. NamDU ilmiy axborotnomasi. 2019-yil, 10-son. 153-157-betlar.
11. Закирова Ф. М., Позилова Ш. Х. Креативное обучение на курсах повышения квалификации преподавателей информатики высших образовательных учреждений//Science for Education Today. 2018. Т. 8.-№. 3. С. 23-36.
12. Крючков Г. Болонский процесс как гармонизация Европейской системы высшего образования. //Иностранные языки в учебных заведениях. – Педагогическая печать, 2004.
13. УЗБЕКИСТАН, О. Р. (2021). ТА’ЛИМ ТИЗИМИДА INNOVATSIYA, INTEGRATSIYA VA YANGI TEXNOLOGIYALAR ИННОВАЦИЯ, ИНТЕГРАЦИЯ И НОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ INNOVATION, INTEGRATION AND NEW.
14. Erkaboyeva, N. S. (2023). INSON KAPITALI–IJTIMOIY DAVLATNING ASOSI SIFATIDA. Academic research in educational sciences, 4(KSPI Conference 1), 31-37.
15. Erkaboeva, N. S., & Turdaliyeva, M. I. K. (2022). Theoretical Principles Of Education Of National Ethics Skills In Educational Institution Students. JournalNX, 8(12), 352-354.
16. Azamovna, R. G. Use of Virtual Environment and 3d Multimedia Electronic Textbooks in Higher Education. JournalNX, 8(12), 255-261.
17. Erkaboeva, N. S., & Musaeva, D. A. K. (2022). Factors of developing the professional competence of a teacher of a special education institution. JournalNX, 8(12), 109-111.



**SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE  
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,  
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”  
VOLUME 1. ISSUE 2. 2025**

18. Nigora, Y. M. I. K. E. (2022). Stages Of Formation And Development Of Mediamadaniatin. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(12), 272-274.

19, Erkaboyeva, N. S. (2016). Features of Modern Uzbek Families. Ученый XXI века, (4-1), 36-39.

20. Эркабоева, Н. Ш. (2016). FEATURES OF MODERN UZBEK FAMILIES. Ученый XXI века, (4-1 (17)), 36-39.

21. Эркабоева, Н., Усмонбоева, М., Иргашова, М., & Хўжаназарова, Н. (2012). Педагогик маҳорат: схема ва расмларда. Т.:“Наврўз, 35.